

**CHAPAQAY O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH VA YOZUVGA O'RGATISH
JARAYONIDA FOYDALANADIGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR (1-SINF
MISOLIDA)**

Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich

Buxoro davlat universiteti dotsenti

Subhonova Sabohat Usmonovna

Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: *Maqolada chapaqay o'quvchilar bilan ishlash va yozuvga o'rgatish jarayonida foydalanadigan innovatsion texnologiyalar va husnixat darslarini tashkil etish metodikasi haqida fikr yuritilgan.*

Tayanch tushunchalar: *sinf, harf, daftar, malaka, qo'l, harakat, yozuv, husnixat, alifbo, ruchka.*

Аннотация: *В статье рассматриваются инновационные технологии, используемые в процессе работы со студентами и обучения их письму, а также методика организации уроков.*

Основные понятия: *класс, письмо, тетрадь, навык, рука, действие, письмо, письмо, алфавит, ручка.*

Abstract: *The article discusses the innovative technologies used in the process of working with students and teaching them to write, as well as the methodology of organizing lessons.*

Basic concepts: *class, letter, notebook, skill, hand, action, writing, letter, alphabet, pen.*

Dunyo amaliyotida chapaqay o'quvchilarni yozuvga o'rgatish, o'quvchilar chapaqayligining fiziologik, psixologik va pedagogik xususiyatlari, boshlang'ich sinf chapaqay o'quvchilarini yozuvga o'rgatish texnologiyalarini tizimli tarzda tashkil etish, chapaqay o'quvchilarni yozuvga o'rgatish samaradorligini oshirishning pedagogik strategiyasi va taktikasini takomillashtirishga doir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, o'qitishni integratsiyalash va modellashtirishning istiqbolli yo'nalishlari asosida boshlang'ich sinflarda ta'lim xizmatlarini diversifikatsiyalash, uzluksizlikni ta'minlovchi mexanizmlarni rivojlantirish, ko'p komponentli yondashuvlarni rag'batlantirishga doir tadqiqotlar muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, boshlang'ich ta'limda chapaqay o'quvchilarni yozuvga o'rgatish orqali didaktik tizimni va individual faoliyatni modellashtirish orqali o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarini insonparvarlashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar zaruriyatini yuzaga keltirmokda.

Bu borada boshlang'ich sinflarda chapaqay o'quvchilarni o'qitish jarayonini modernizatsiyalashning amaliyotdagi holatini tahlil qilish, chapaqay o'quvchilarni faollashtirish orqali boshlang'ich sinf o'qituvchisi va o'quvchilari o'rtasidagi munosabatlarni insonparvarlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish mazmuni, usullari, metodlari va vositalarini aniqlashtirish hamda ilmiy asoslash muhim

ahamiyat kasb etadi. Chapaqay o'quvchilarni yozuvga o'rgatishdan asosiy maqsad kichik yoshdagi o'quvchilarga yozishdek murakkab jarayonni o'rgatish orqali, ularning chiroyli yozuv ko'nikma va malakalarini rivojlantirishdan iborat. Yozuvga o'rgatishning oldiga bir qator vazifalar qo'yiladi. Bu vazifalar ko'p qirrali bo'lib o'quvchilarni aqliy rivojlantirishga, ularning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirishga, axloqiy va estetik didini tarbiyalash, ongli o'qish va yozish malakalarini hamda yozuv daftarlari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Yozuvga o'rgatishning oldiga bir qator vazifalar qo'yiladi. Bu vazifalar ko'p qirrali bo'lib o'quvchilarni aqliy rivojlantirishga, ularning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirishga, axloqiy va estetik didini tarbiyalash, ongli o'qish va yozish malakalarini hamda yozuv daftarlari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur vazifalarning barchasi o'zaro bog'liq holda amalga oshiriladi. Ularni ijobiy hal qilish esa zaruriy yozuv malakalarini egallashga darslikda o'quvchilar saviyasiga mos tarzda berilgan nazariy va amaliy materiallarning uyg'unlashtirilishi, o'zlashtirish ustida ishlashni maqsadga mos holda uyushtirish, shuningdek, matn sifati, topshiriqlar xususiyati va bolalar aqliy faoliyatining o'ziga xos tomonlarini belgilaydigan qator shart-sharoitlarga bog'liq.

So'nggi paytda dunyoda chapaqaylar soni ortib bormoqda. Masalan, XX asr boshida ular aholining 4 %ini tashkil etgan bo'lsa, endilikda bu ko'rsatkich 15 %ni tashkil etmoqda. Statistika ma'lumotiga ko'ra, hozirda er yuzida 600 million chapaqay odam bor. Bu har 10-15 nafar kishining bittasi demakdir.

Yozuvga o'rgatish jarayonida harakatlarni bajarishda deyarli barcha holatlarda chap qo'ldan foydalanuvchilar chapaqaylardir.

Odam bosh miyasining rivojlanish jarayonida amallar chap va o'ng yarim sharlar o'rtasida taqsimlanadi. Chap yarim shar zimmasiga nutq, o'qish, yozish, hisoblash, tahliliy faoliyatning mantiqiy, matematik va boshqa murakkab operatsiyalari, o'ng yarim shar zimmasiga esa tashqi olamdagi narsalarning ko'rinishi, rangi va shu kabi yana ko'plab narsalarni aniqlash vazifasi yuklatiladi. Oyoq va qo'l harakatlari ikkala yarim shar o'rtasida taqsimlangan bo'lib, chap yarim shar ixtiyorida o'ng qo'l va oyoq, chap qo'l va oyoq o'ng yarim shar ixtiyorida bo'ladi.

Chapaqay o'quvchi yozishga biroz qiynaladi. Chapaqay bola biror bir matnni yozayotganda chap qo'l yozilayotgan yozuvni berkitib turadi va qayta-qayta yozganlariga qarayveradi. O'ng qo'lda yozadiganlar esa yozganlarini ko'rib turib, davom ettiraveradi va vaqtdan yutadi. Aslida, bu vaqtinchalik holat. Doimiy ravishda chap qo'l bilan yozish natijasida ba'zi chapaqay o'quvchilar o'ng qo'lda yozadiganlardan ham o'zib ketadi.

Ko'pchilik ota-onalar chapaqay bolalarini chiroyli yozishga o'rgata olmayotganliklaridan qiynaladilar. Chunki farzandlari oddiy bolalarday ruchkani ushlay olmaydi. Bu hol ularni asabiylashtiradi. Chapaqay o'quvchilarni yozuvga o'rgatish muammosi bugungi kunda turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda yozuvga o'rgatishda chapaqaylikni o'rganish mazmunining pedagogik trening, pinboard, pragmatizm, ergonomika usullari (pedagogik) hamda praktsiologiya, perseptiv (psixologik) yo'nalishlarini tasniflash va tajriba aloqadorligi empirik baholash orqali takomillashtirilgan. Bosh miya chap va o'ng yarim shardan iborat. Bosh miyaning chap yarim sharida nutq markazlari joylashgan. Shuning uchun bosh miyaning chap yarim sharida so'z bilan bog'liq barcha tafakkur g'oyalari amalga oshiriladi. Bosh miyaning o'ng yarim shari ob'ektlarning fazoviy joylashuvini tahlil qilish uchun javob beradi. Masalan, atrof-muhitdagi uylar, daraxtlar, mashinalar, haykallar va har qanday shaklga ega bo'lgan ob'ektlarning shakl-shamoyilini tahlil qiladi. Demak, bosh miyaning o'ng yarim shari dunyoni so'z ishtirokisiz qabul qiladi va bu erda, asosan, ko'rish analizatorining ahamiyati muhim hisoblanadi. Chap yarim shar esa so'z bilan ifodalangan ma'lumotlarni qabul qiladi va tahlil qiladi. Obrazli qilib aytganda, chap yarim shar, asosan, so'z bilan, o'ng yarim shar esa ko'z bilan dunyoni idrok etadi. Bu uyg'unlik saqlangan bo'lsa, insonning xotirasi mustahkam bo'ladi.

Chapaqaylarda nutq markazlari bosh miyaning o'ng yarim sharida joylashgan bo'ladi. Chapaqaylarda chap yarim shar bajaradigan aksariyat funksiyalar o'ng yarim shar zimmasiga yuklatilgan. Bundan tashqari, *ambidekstrlar*, ya'ni oliy ruhiy funksiyalarni bajarishda miyaning ikkala yarim shari bir xilda ishtirok etadiganlar ham bor. Bundaylar ikkala qo'li bilan ham bir xil ishlay oladiganlar. Biroq bu degani ikkala qo'li bilan ham yoza oladi, degani emas. Masalan, ambidekstr yozganda, qalamni o'ng qo'lga oladi, nonni kesish uchun chap qo'li bilan pichoqni ushlaydi. "Toza" chapaqaylar 15%dan oshmaydi. Bizning oramizda ambidekstrlar va o'naqaylar ko'p. Ambidekstrlarda nutq funksiyasini bajarishda bosh miyaning ikkala yarim shari ham ishtirok etadi. Shu bois ambidekstrlarda insult sababli nutq buzilsa, u tez tiklanadi.

Chapaqaylardan kompozitor, rassom, futbolchi, bokschilar va tabiatshunos olimlar ko'proq etishib chiqadi. Nima uchun chapaqaylardan buyuk futbolchilar chiqadi, ular golni aniq urishadi? Bu holat geometrik figuralar uchun javob beradigan o'ng yarim sharning ustunligi bilan bog'liq. Ular darvozaning har qanday burchagini to'g'ri nishonga olishadi. Chapaqaylar o'naqaylarga qaraganda hissiyotga ko'proq beriladi. Shu sabab ularni xafa qilish oson. Balkim shuning uchundir, ularda birovlardan ustunlik qilishga intilish yuqori.

Chapaqaylar ko'proq amaliyotchi, o'naqaylar esa nazariyotchi bo'lishadi. Chunki miyaning chap yarim shari (ya'ni so'z markazlari joylashgan yarim shar) ustunlik qiladigan o'naqaylar narsa va voqealarni tahlil qilib o'tirguncha, miyaning o'ng yarim shari ustunlik qiladigan chapaqaylar (amaliyotni yaxshi ko'radigan o'ng yarim shar) ishni darrov amalga oshiradi-qo'yadi.

Butunjahon chapaqaylar kunini nishonlash g'oyasi ilk marotaba 1990 yilda Britaniya Chapaqaylar klubi tomonidan berilgan.

Statistikaga ko'ra, chapaqay bolaning tug'ilish ehtimoli, agar ikkala ota-ona o'naqay bo'lsa, faqat 2%. Agar ota-onalardan biri chapaqay bo'lsa, ehtimollik 17% ga

oshadi va agar ota-onalarning har ikkalalari chapaqay bo'lishsa, 46% hollarda chapaqay bolalar dunyoga keladi.

Mutaxassislar chapaqay bolalarning quyidagi o'ziga xos psixologik xususiyatlarini alohida e'tiborga molik deb biladilar:

– ular o'z tanalarini yaxshi biladilar, harakatlarni yaxshi muvofiqlashtirishga ega, umuman, ular ko'proq harakatchandirlar, o'z-o'zini nazorat qilishni talab qiladigan bir xillik faoliyatni yoqtirmaydilar;

– maktabda osongina geometriyani o'zlashtira oladilar, atrof muhitni tez va to'g'ri anglash qobiliyatlari bor. Lekin matematika bilan bog'liq muammolar bo'lishi mumkin. Chunki bu erda mantiqiy fikrlash talab etiladi va bu imtiyoz - chap yarim shar ixtiyoriga berilgan;

– ularda umumlashtirish qobiliyati yaxshi rivojlangan, ammo tahlil qilishga urinish, aksincha, qiyinchiliklarga olib keladi;

– ular boy tasavvurga ega.

Yana bir maxsus guruh odamlar borki ularni **ambidekstr** deyiladi. Ular har ikkala qo'llari bilan ham bir xil - yaxshi ishlay olishadi. Ular miyasining har ikkala yarim shari teng ravishda rivojlangan. Ambidekstr ko'pincha tug'ma mahorat emas, balki ko'p yillik doimiy mashqlar natijasida yuzaga keladigan iste'dod. Bunga faqatgina tinimsiz mehnat orqali erishiladi. Er yuzidagi odamlarning faqat 1%, albatta, ikkala qo'l bilan ham teng va to'laqonli faoliyat olib borib biladilar, xolos. Eng mashhur ambidekstr Leonardo da Vinchi, Jimi Hendriks, Keanu Reeves, Tom Kruz, Garri Truman va Mariya Sharapovalar.

Ma'lumotlarga qaraganda, chapaqay bolalarning qo'pchiligi o'zining chap qo'lda yozishidan uyalar ekan. Bir muddat o'ng qo'lda yozishga harakat qilib, uddalay olmagach, yana chap qo'lda yozishni boshlar ekan.

Ma'lumki, shu paytga qadar chapaqay insonlarning aksariyati noyob iste'dodga ega bo'lishadi, degan aqida mavjud.

Chapaqay bolalar yozishga biroz qiynaladi. Chunki biror - bir matnni yozayotganda chap qo'l yozilayotgan yozuvni berkitib turadi. Ular qayta-qayta yozganlariga qarayveradi. O'ng qo'lda yozadiganlar esa yozganlarini ko'rib turib davom ettiraveradi va vaqtdan yutadi. Aslini olganda, bu vaqtinchalik holat. Doimiy ravishda chap qo'l bilan yozish natijasida ba'zi chapaqay o'quvchilarnilar o'ng qo'lda yozadiganlardan ham o'zib ketadi.

Olimlarning ta'kidlashicha, chapaqay insonlar uch turga bo'linadi:

1. Majburiy chapaqaylar. Odatda, qo'li singan yoki shikastlangan bolalarga ota-onalari yoki maktabdagi o'qituvchilari tomonidan chap qo'lda yozish o'rgatiladi. Ammo qanchalik harakat qilinmasin, uning husnixati chiroyli bo'lmaydi. Chunki ular tabiatan o'ng qo'lda yozishga o'rganganlar. Bunday bolalarda miyaning faol qismi chapligicha qolaveradi. Bu degani uning o'ng tomon miyasi uchun javobgar qism chap tomon hisoblanadi. Chunki o'ng qo'l bilan yozadigan insonlarda ham xuddi shunday. Majburiy chapaqaylar er sharining atigi 3% odamlarini o'z ichiga oladi.

2. Taqlidiy chapaqaylar. Bunday insonlar bolalik chog'idan oila a'zolari yoki maktabdagi o'rtoqlariga qarab chapaqay bo'lganlar. Chapaqay bo'lishlariga albatta kimdir sababchi bo'ladi. Shuning uchun bo'lsa kerak bunday chapaqay bolalarning yozuvi xunuk va tartibsiz bo'ladi. Ularda ham aslida miyaning chap yarim shari faollik qiladi. Bunday insonlar oramizda faqatgina 0,5% ni tashkil etadi, xolos.

3. Tug'ma chapaqay insonlar. Ba'zi insonlarda qo'lga nisbatan faol yarim shar uncha yaxshi rivojlanmaydi. Shuning uchun bunday odamlar qaysi qo'lda yozishni o'zlari hal qilishadi. Yoki, odatda, ular ikki qo'lida ham bir xil yoza olish qobiliyatiga ega. Ular taxminan 7-8%ni tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси.-Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 77 б.

2. Ўзбекистон Республикаси “Таълим тўғрисида”ги қонуни. палатаси томонидан 2020 йил 19 майда қабул қилинган Сенат томонидан 2020 йил 7 августда маъқулланган. ЎРҚ-637. 23.09.2021. <https://lex.uz/ru/docs>

3. Умумий ўрта таълимнинг Давлат таълим стандарти. Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6 апрелдаги 187-сон қарори.

4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги фармони. //“Халқ сўзи” газетаси. – 2017 йил 8 февраль. №28 (6722).

5. Azimov Y.Y.. Husnixat va uni o'qitish usuliyoti (O'quv-usuliy qo'llanma). - Vuxoro, 2008, -104 b.

6. Azimov Y.Y.. Husnixatga o'rgatishning amaliy asoslari (Metodik qo'llanma). Turon Zamin Ziyo nashriyoti, - Toshkent, 2017, -132 b.

7. Azimov Y.Y., Qo'ldoshev R.A.. Husnixatga o'rgatishning amaliy asoslari (Metodik qo'llanma) GlobeEdit, 2020, -130 b.

8. Айрапетянц В.А. Функциональная асимметрия мозга и некоторые проблемы обучения леворуких детей / Сб. Психофизиологическое развитие и состояние психического здоровья детей и подўнгов. -М., 1987.

9. Аксюта, О. В. Левша или правша? [Текст] / О. В. Аксюта. – Витебск. : УО «ГЦВР», 2009. – 63 с.

10. Безруких М.М. Проблемные дети / М.М. Безруких. - М.: Изд-во УРАО, 2000. -312 с.

11. Безруких М.М. Ребёнок идёт в школу / М.М. Безруких, С.П. Ефимова. - М.: Академия, 2000. - 248 с.

12. Безруких М.М. Если ваш ребёнок левша / М.М. Безруких, М.Г. Князева. - М.: Новая школа, 1994. - 108 с.

13. Qo'ldoshev R. SHARAQAYLIK: MUAMMO YOKI QOBILIYAT //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2022. – Т. 22. – №. 22.
14. Qo'ldoshev R. BOSHLANG'ICH SINIF SHARAQAY O'QUVCHILARGA BERILADIGAN PEDAGOGIK YORDAM VA YOZUVGA O'RGATISH JARAYONIDA FOYDALANILADIGAN TECHNOLOGIYALAR //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2022. – Т. 22. – №. 22.
15. Avezmurodovich Q. R., Oybekovna N. D. BOSHLANGICH SINIF O'QUVCHILARINING BOG'LANISHLI NUTQINI O'STIRISH. QAYTA HIKOYALASH VA BAYON TURLARI. – 2022.
16. Қўлдошев Р. А. БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЧАПАҚАЙ ЎҚУВЧИЛАРНИ ЁЗУВГА ЎРГАТИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 1120-1129.
17. G'afarovna, Jumayeva Habiba. "SAVOD O 'RGATISHGA TAYYORGARLIK BOSQICHIDA O 'QISH VA YOZUVGA O 'RGATISH." *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.3 (2022): 1-4.
18. Habiba G. BIRINCHI SINIF O 'QUVCHILARIDA YOZUV MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 983-989.
19. Navrozova, M. G. (2021). XALQONA TIBBIY BIRLIKLARDA MANO KOCHISH USULLARI. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 1), 1487-1491
20. Безруких М.М. Возрастная физиология / М.М.Безруких, В.Д.Сонькин, Д.А. Фарбер. - М.: Академия, 2002. - 234 с.